XALQ DEPUTATLARI NORIN TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2022 - yil 16 - mart VI-38-32-6-83-K/22 Norin tuman hokimligi

Norin tumanida 2022 yil uchun yuridik va jismoniy shaxslarning qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun bazaviy soliq stavkalarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga asosan hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-sonli Farmoniga muvofiq hamda “Mahalliy davlat hokimyati to’g’risidagi ”O’zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasiga asosan Xalq deputatlari Norin tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining hamda Davlat soliq qo’mitasining 2021 yil 8 noyabrdagi “Qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar uchun mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo’llash to’g‘risida”gi 06/04-01-32/2248 va 19/10-68220-sonli qo’shma xatlarida quyidagilar:

Yer solig‘ining amaldagi soliq stavkalari 2022 yilda 1,07 baravarga indeksatsiya qilinishi kutilayotganligi;

kelgusi yil bazaviy soliq stavkasiga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar qo’llashda keyingi yil mahalliy budjet daromadlari prognozidan kelib chiqish bo’yicha tavsiyalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. “Qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar uchun jismoniy va yuridik shaxslar bo’yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar” miqdorlarini belgilash bo’yicha tuman Moliya bo’limi hamda tuman Davlat soliq inspeksiyasi qo’shma taklifi ma’qullansin.

3. Quyidagilar:

Norin tumani hududida qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo’yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 1-ilovaga muvofiq,

Norin tumani hududida qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar uchun jismoniy

shaxslar bo’yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda,

Soliq idoralariga jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2021 yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi;

tuman xalq deputatlari Kengashiga viloyat xalq deputatlari Kengashi tomonidan belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar uchun, ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko’cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqi berilganligi alohida ko’rsatib o’tilsin.

4. Tuman Moliya bo’limi (G’.Primqulov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (I.Sarimsaqov) 3 kun muddatda qishloq xo’jaligiga mo’ljallanmagan yerlar bo’yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan koeffitsientlarni yetkazilishini ta’minlasin.

5. Tuman xalq deputatlari Kengashi 1 hafta muddatda ushbu qarorning 1 va 2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga hududlarda joylashgan daha, massiv, mahalla, ko’cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo’llash bo’yicha muhokamalar o’tkazib, muhokamalar yakuni bo’yicha tasdiqlangan soliq stavkalarni moliya hamda soliq organiga taqdim etsin.

6. Tuman xalq deputatlari Kengashi ushbu qarorning 1 va 2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kelgusi yil uchun mahalliy budjet daromadlari prognozidan hamda mamlakatimizda iqtisodiy faollikning tiklanganligi hamda aholi va tadbirkorlarning daromadlari barqarorlashganligidan kelib chiqqan holda qo’llashlari tavsiya etilsin.

7. Norin tumani Davlat soliq inspeksiyasi (I.Sarimsaqov) yer solig‘i bo’yicha tasdiqlangan soliq stavkalarini barcha soliq to’lovchilarga soliq to’lovchining shaxsiy kabineti orqali yetkazilishini ta’minlasin.

O’zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

Soliqlarning to’liq va to’g‘ri hisoblanishini hamda o’z vaqtida budjetga undirilishini nazoratga olib borish;

tegishli budjetning ijro etilishi jarayonida unga tushumlarni ko’paytirish bo’yicha qo’shimcha zaxiralarni aniqlash;

yer solig‘ining soliq bazasini oshirish, ya’ni xatlov ishlarini samarali tashkil etib borsinlar.

8. Tuman moliya bo’limi (G’.Primqulov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (I.Sarimsaqov) tuman “Norin ovozi” gazetasi (N.Xasanov), bilan birgalikda ushbu qaror 1 va 2-ilovalariga muvofiq soliq stavkalari, soliq solish tartib-taomillari hamda boshqa masalaga oid ma’lumotlarni

ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasin.

9. Xalq deputatlari Namangan viloyat Kengashining 2021 yil 30 dekabrdagi VI-28-71-6-0-K/21-sonli qarori o’z ko’chini yoqotganligi sababli, shu asosda qabul qilingan, Xalq deputatlari Norin tuman Kengashining 2021 yil 31 dekabrdagi VI-35-67-6-83-K/21-sonli qarori ham o’z ko’chini yoqotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror tuman “Norin ovozi” gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o’rinbosari (I.Ikromov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi (M.Sobirov) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi **Ж.Нурматов**

Xalq deputatlari Norin tuman
Kengashining
2022 yil 16 martdagi
VI-38-32-6-83-K/22-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo`jaligi uchun mo`ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo`yicha mutloq miqdorda belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar

so`mda

T/r	Xududnomi	MFYlar nomi	Viloyat xalq deputatlari kengashining taklifi. yersolig`i stavkasi 2022 yil uchun (1 ga uchun)	Koeffisient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig`i stavkasi 2022 yiluchun (1 gauchun)
1	Norin tumani	Bo`ston	23,275,000	1.14	26,500,000
2	Norin tumani	Bobur	23,275,000	1.14	26,500,000
3	Norin tumani	A.Navoiy	23,275,000	1.14	26,500,000
4	Norin tumani	Furqat	23,275,000	1.14	26,500,000
5	Norin tumani	Quyultepa	23,275,000	1.14	26,500,000
6	Norin tumani	Yaydoq	23,275,000	1.14	26,500,000
7	Norin tumani	KattaYaydoq	23,275,000	1.14	26,500,000
8	Norin tumani	Bo`zulmas	23,275,000	1.14	26,500,000
9	Norin tumani	Katta O`lmas	23,275,000	1.14	26,500,000
10	Norin tumani	Do`stlik	23,275,000	1.14	26,500,000
11	Norin tumani	Zarbdor	23,275,000	1.14	26,500,000
12	Norin tumani	Ettiqashqa	23,275,000	1.14	26,500,000
13	Norin tumani	O`zbekiston	23,275,000	1.14	26,500,000
14	Norin tumani	Yangitong	23,275,000	1.14	26,500,000
15	Norin tumani	Tegirmonboshi	23,275,000	1.07	25,000,000
16	Norin tumani	Mirsultonchek	23,275,000	1.07	25,000,000
17	Norin tumani	Qurama	23,275,000	1.07	25,000,000
18	Norin tumani	Sirmoq	23,275,000	1.07	25,000,000
19	Norin tumani	KattaOqtovliq	23,275,000	1.07	25,000,000
20	Norin tumani	Yashiq	23,275,000	1.07	25,000,000
21	Norin tumani	Mustaqillikning 20 yilligi	23,275,000	1.07	25,000,000
22	Norin tumani	Ibrat	23,275,000	1.07	25,000,000
23	Norin tumani	Sho`rariq	23,275,000	1.14	26,500,000
24	Norin tumani	Qozoqovul	23,275,000	1.07	25,000,000

25	Norin tumani	Do`mar	23,275,000	1.07	25,000,000
26	Norin tumani	Naymanobod	23,275,000	1.07	25,000,000
27	Norin tumani	To`lqin	23,275,000	1.07	25,000,000
28	Norin tumani	Toshloq	23,275,000	1.07	25,000,000
29	Norin tumani	Qiziltov	23,275,000	1.07	25,000,000
30	Norin tumani	Bo`ritepa	23,275,000	1.07	25,000,000
31	Norin tumani	Boyovul	23,275,000	1.07	25,000,000
32	Norin tumani	Nurziyo	23,275,000	1.07	25,000,000
33	Norin tumani	Polvonko`l	23,275,000	1.07	25,000,000
34	Norin tumani	Xo`jaobod	23,275,000	1.14	26,500,000
35	Norin tumani	Rovot	23,275,000	1.07	25,000,000
36	Norin tumani	Qo’shariq	23,275,000	1.07	25,000,000
37	Norin tumani	Otbozor	23,275,000	1.07	25,000,000
38	Norin tumani	To`da	23,275,000	1.07	25,000,000
39	Norin tumani	Suzoqovul	23,275,000	1.07	25,000,000
40	Norin tumani	Qo`shchek	23,275,000	1.07	25,000,000
41	Norin tumani	Toshqin	23,275,000	1.14	26,500,000
42	Norin tumani	Marg`izor	23,275,000	1.14	26,500,000
43	Norin tumani	Qo`rg`oncha	23,275,000	1.07	25,000,000
44	Norin tumani	Kemaboshi	23,275,000	1.07	25,000,000
45	Norin tumani	Saodat	23,275,000	1.07	25,000,000
46	Norin tumani	Shoxidon	23,275,000	1.07	25,000,000
47	Norin tumani	Norinkapa	23,275,000	1.14	26,500,000
48	Norin tumani	Soybo`yi	23,275,000	1.07	25,000,000
49	Norin tumani	Yangi Farg`ona	23,275,000	1.07	25,000,000
50	Norin tumani	Changitma	23,275,000	1.07	25,000,000
51	Norin tumani	Xo`jaqo`rg`oncha	23,275,000	1.07	25,000,000
52	Norin tumani	Qorateri	23,275,000	1.14	26,500,000
53	Norin tumani	Xajintoli	23,275,000	1.07	25,000,000
54	Norin tumani	Istiqlol	23,275,000	1.07	25,000,000
55	Norin tumani	Uchtepa	23,275,000	1.14	26,500,000
56	Norin tumani	Yuqori Cho`ja	23,275,000	1.07	25,000,000
57	Norin tumani	Pastki Cho`ja	23,275,000	1.14	26,500,000

Xalq deputatlari Norin tuman
Kengashining
2022 yil 16 martdagi
VI-38-32-6-83-K/22-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo`yicha (dehqon xo`jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo`jaligiga mo`ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffisientlar

so`mda

T/r	Hududnomi	MFYnomi	Viloyat xalq deputatlari kengashining taklifi. Yer solig`i stavkasi 2022yil uchun (1 ga uchun)	Koeffisient (0,7 dan 3,0 gacha)	Yer solig`i stavkasi 2022 yil uchun (1 kv uchun)
1	Norin tumani	Bo`ston	209.6	1.03	215.0
2	Norin tumani	Bobur	209.6	1.03	215.0
3	Norin tumani	A.Navoiy	209.6	1.03	215.0
4	Norin tumani	Furqat	209.6	1.03	215.0
5	Norin tumani	Quyultepa	209.6	1.03	215.0
6	Norin tumani	Yaydoq	209.6	1.03	215.0
7	Norin tumani	KattaYaydok	209.6	1.03	215.0
8	Norin tumani	Bo`zo`lmas	209.6	1.03	215.0
9	Norin tumani	Katta O`lmas	209.6	1.03	215.0
10	Norin tumani	Do`stlik	209.6	1.03	215.0
11	Norin tumani	Zarbdor	209.6	1.03	215.0
12	Norin tumani	Yettiqashqa	209.6	1.03	215.0
13	Norin tumani	O`zbekiston	209.6	1.03	215.0
14	Norin tumani	Yangi tong	209.6	1.03	215.0
15	Norin tumani	Tegirmonboshi	209.6	0.91	190.0
16	Norin tumani	Mirsultonchek	209.6	0.91	190.0
17	Norin tumani	Qurama	209.6	0.91	190.0
18	Norin tumani	Sirmoq	209.6	0.91	190.0
19	Norin tumani	Katta Oqtovliq	209.6	0.91	190.0
20	Norin tumani	Yashiq	209.6	0.91	190.0
21	Norin tumani	Mustaqillikning 20 yilligi	209.6	0.91	190.0
22	Norin tumani	Ibrat	209.6	0.91	190.0
23	Norin tumani	Sho`rariq	209.6	1.03	215.0
24	Norin tumani	Qozoqovul	209.6	0.91	190.0

25	Norin tumani	Do`mar	209.6	0.91	190.0
26	Norin tumani	Naymanobod	209.6	0.91	190.0
27	Norin tumani	To`lqin	209.6	0.91	190.0
28	Norin tumani	Toshloq	209.6	0.91	190.0
29	Norin tumani	Qiziltov	209.6	0.91	190.0
30	Norin tumani	Bo`ritepa	209.6	0.91	190.0
31	Norin tumani	Boyovul	209.6	0.91	190.0
32	Norin tumani	Nurziyo	209.6	0.91	190.0
33	Norin tumani	Polvonko`l	209.6	0.91	190.0
34	Norin tumani	Xo`jaobod	209.6	1.03	215.0
35	Norin tumani	Rovot	209.6	0.91	190.0
36	Norin tumani	Qo’shariq	209.6	0.91	190.0
37	Norin tumani	Otbozor	209.6	0.91	190.0
38	Norin tumani	To`da	209.6	0.91	190.0
39	Norin tumani	Suzoqovul	209.6	0.91	190.0
40	Norin tumani	Qo`shchek	209.6	0.91	190.0
41	Norin tumani	Toshqin	209.6	1.03	215.0
42	Norin tumani	Marg`izor	209.6	1.03	215.0
43	Norin tumani	Qo`rg`oncha	209.6	0.91	190.0
44	Norin tumani	Kemaboshi	209.6	0.91	190.0
45	Norin tumani	Saodat	209.6	0.91	190.0
46	Norin tumani	Shoxidon	209.6	0.91	190.0
47	Norin tumani	Norinkapa	209.6	1.03	215.0
48	Norin tumani	Soybo`yi	209.6	0.91	190.0
49	Norin tumani	Yangi Farg`ona	209.6	0.91	190.0
50	Norin tumani	Changitma	209.6	0.91	190.0
51	Norin tumani	Xo`jaqo`rg`oncha	209.6	0.91	190.0
52	Norin tumani	Qorateri	209.6	1.03	215.0
53	Norin tumani	Xajintoli	209.6	0.91	190.0
54	Norin tumani	Istiqlol	209.6	0.91	190.0
55	Norin tumani	Uchtepa	209.6	1.03	215.0
56	Norin tumani	Yuqori Cho`ja	209.6	0.91	190.0
57	Norin tumani	Pastki Cho`ja	209.6	1.03	215.0